

BADIIYLIK – ADABIYOTNING ASOSIY XUSUSIYATI

Taqrizchi:

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrasini mudiri (Phd)

M.S.Sobirjonova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili 112-guruh

1- bosqich talabalari

Ismoilova Sevinch Sirojiddin qizi

sevinchismoilova0702@gmail.com

Toshnazarova Nilufar Faxriddin qizi

nilufartoshnazarova07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiylik nima ekanligi, uning adabiyotdagi o'rni va nima uchun muhimligi oddiy va tushunarli tarzda tushuntiriladi. Badiiylikning asosiy belgilariga, ya'ni obrazlilik, tasviriylik va his-tuyg'uga ta'sir qilish kabi jihatlarga alohida to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, badiiylik va hayotiylik o'rtasidagi bog'liqlik ham sodda qilib izohlanadi. Maqola davomida badiiylikni yuzaga chiqaradigan vositalar haqida ham misollar bilan tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: badiiylik, badiiy adabiyot, obraz, obrazlilik, tasviriylik, oddiy til, badiiy til, his-tuyg'u, hayotiylik, g'oya, mavzu, syujet, kompozitsiya, yozuvchi, uslub, metafora, tashbeh, epitet, mubolag'a, dialog, monolog, qahramon, tasvir, adabiyot, san'at

Abstract: This article explains in a simple and understandable way what art is, its role in literature, and why it is important. The main features of art, namely, imagery,

descriptiveness, and emotional impact, are discussed separately. The relationship between art and vitality is also explained in a simple way. The article also explains the means of creating art with examples.

Keywords: art, fiction, image, figurativeness, descriptiveness, ordinary language, artistic language, emotion, vitality, idea, theme, plot, composition, writer, style, metaphor, simile, epithet, exaggeration, dialogue, monologue, hero, image, literature, art

Аннотация: В данной статье простым и понятным языком объясняется, что такое искусство, его роль в литературе и почему оно важно. Отдельно рассматриваются основные характеристики искусства, а именно: образность, описательность и эмоциональное воздействие. Также простым языком объясняется взаимосвязь между искусством и жизненной силой. В статье также приводятся примеры способов создания произведений искусства.

Ключевые слова: искусство, художественная литература, образ, образность, описательность, обыденный язык, художественный язык, эмоция, жизненная сила, идея, тема, сюжет, композиция, писатель, стиль, метафора, сравнение, эпитет,

Kirish

Adabiyot haqida gap ketganda, ko'pchilik darrov kitoblar, she'rlar yoki mashhur yozuvchilarni eslaydi. Lekin aslida adabiyot bundan ham kengroq tushuncha. U inson hayoti bilan juda yaqin bog'liq. Chunki har bir odam ichida nimadir his qiladi, nimanidir o'ylaydi va ba'zida shu narsalarni boshqalar bilan bo'lishgisi keladi. Ana shu ehtiyojdan adabiyot paydo bo'lgan desak ham bo'ladi. Oldinlari odamlar ertak aytib bergan, qo'shiqlar kuylagan, keyinchalik esa bular yozma shaklga o'ta boshlagan. Shu tarzda adabiyot asta-sekin rivojlangan. Lekin bir narsani tushunish muhim: har qanday yozilgan matn ham adabiyot bo'lavermaydi. Masalan, oddiy xabar yoki darslikdagi matn ham yozilgan bo'ladi, lekin ularni badiiy asar deb bo'lmaydi. Sababi ular faqat ma'lumot beradi. Badiiy adabiyot esa bundan farq qiladi. U nafaqat ma'lumot beradi, balki o'quvchini

o‘ylantiradi, his qildiradi, ba‘zan esa o‘zgarishga ham undaydi. Mana shu farqni yuzaga chiqaradigan narsa - badiiylik hisoblanadi.

Badiiylikni oddiy qilib tushuntiradigan bo‘lsak, bu - gapni boshqacharoq, chiroyliroq va ta’sirliroq qilib aytish degani. Masalan, kimdir “men juda qo‘rqdim” desa, bu oddiy gap. Lekin yozuvchi shu holatni tasvirlab bersa, ya’ni qahramonning yuragi tez urganini, qo‘llari titraganini yoki atrof jim bo‘lib qolganini aytsa, bu badiiy bo‘ladi. O‘quvchi bu holatni o‘zi his qilgandek bo‘ladi. Demak, badiiylik - bu faqat gap yozish emas, balki hisni yetkazishdir. Yozuvchilar hayotni shunchaki ko‘chirib yozmaydi. Ular hayotda ko‘rgan, eshitgan yoki his qilgan narsalarini o‘zicha qayta ishlaydi. Shu sababli badiiy asarda hamma narsa aynan real hayotdagidek bo‘lishi shart emas. Lekin u baribir ishonarli bo‘lishi kerak. Agar asarda umuman hayotga o‘xshamaydigan narsalar bo‘lsa, o‘quvchi ishonmaydi. Shuning uchun badiiylik doim hayotiylik bilan birga bo‘ladi.

Badiiylikning eng muhim tomonlaridan biri - obrazlilik. Bu degani yozuvchi fikrini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmaydi, balki obrazlar orqali ko‘rsatadi. Masalan, “u yaxshi inson edi” deyish o‘rniga, uning boshqalarga yordam berishi, mehribonligi orqali ko‘rsatadi. O‘quvchi o‘zi xulosa qiladi. Bu esa ancha ta’sirli bo‘ladi. Shuning uchun obrazlilik badiiylikning asosi hisoblanadi.

Yana bir muhim narsa - tasviriylik. Badiiy asarda voqealar shunchaki aytilmaydi, balki ko‘z oldimizga keladigan qilib tasvirlanadi. Masalan, yomg‘ir haqida yozilganda faqat “yomg‘ir yog‘di” deyish bilan cheklanilmaydi. Balki tomchilarning ovozi, havoning sovishi, odamlarning kayfiyati ham birga beriladi. Shu sababli o‘quvchi o‘zini o‘sha joyda turgandek his qiladi.

Badiiylikning yana bir kuchli tomoni - u his-tuyg‘uga ta’sir qiladi. Oddiy matn odamni faqat tushunishga majbur qiladi, badiiy asar esa his qilishga majbur qiladi. Masalan, yaxshi yozilgan hikoyani o‘qib odam yig‘lab yuborishi yoki kulib yuborishi mumkin. Bu esa badiiylikning kuchini ko‘rsatadi. Chunki inson ko‘proq his qilgan narsasini eslab qoladi. Hozirgi kunda odamlar ko‘proq qisqa va tez o‘qiladigan matnlarni

o‘qishga o‘rganib qolgan. Telefon, ijtimoiy tarmoqlar ham bunga sabab bo‘lmoqda. Lekin badiiy asar boshqacha. Uni tushunish uchun vaqt kerak bo‘ladi. O‘qib chiqishning o‘zi yetmaydi, o‘ylash ham kerak bo‘ladi. Ba‘zan birgina gap ustida ham to‘xtab qolish mumkin. Bu esa insonning fikrlashini rivojlantiradi.

Badiiylik yozuvchining uslubiga ham bog‘liq. Har kim bir xil yozmaydi. Kimdir juda sodda yozadi, kimdir esa murakkabroq yozadi. Lekin asosiy maqsad o‘sha - o‘quvchiga ta’sir qilish. Shu sababli har bir yozuvchining asari boshqacha bo‘ladi. Bu esa adabiyotning qiziqarli tomonidir. Badiiylikni yaratishda turli vositalardan foydalaniladi. Masalan, metafora, tashbeh, mubolag‘a kabi vositalar bor. Bu so‘zlar biroz qiyin tuyulishi mumkin, lekin aslida ular oddiy narsalar. Masalan, “yuragi muzlab ketdi” degan gapni olaylik. Bu yerda yurak muzlab qolmaydi, lekin bu qo‘rqishni kuchliroq ko‘rsatadi. Mana shu badiiylik hisoblanadi.

Yana dialog va monolog ham muhim. Qahramonlar gaplashganda ularning qanday inson ekanligi bilinadi. Ba‘zan odamning birgina gapidan ham uning xarakterini tushunish mumkin. Shu sababli bu ham badiiylikni kuchaytiradi. Badiiylik faqat adabiyot uchun emas, inson uchun ham muhim. Chunki u odamni boshqalarni tushunishga o‘rgatadi. Masalan, kitob o‘qigan odam turli hayotlarni ko‘radi, turli odamlar bilan “uchrashadi”. Bu esa uni yanada keng fikrlaydigan qiladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiylik - bu adabiyotning yuragi. Agar u bo‘lmasa, asar oddiy matnga aylanib qoladi. Badiiylik esa matnga jon bag‘ishlaydi, uni o‘qiladigan, esda qoladigan va ta’sirli qiladi. Shu sababli badiiylikni tushunish adabiyotni tushunish bilan teng desa ham bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo‘shjonov M. – **Adabiyot nazariyasi**. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Karimov N. – **Adabiyotshunoslik asoslari**. Toshkent.
3. Qayumov A. – **Adabiyot nazariyasi va tahlil asoslari**.
4. Hotamov N., Sarimsoqov B. – **Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati**.



5. To‘xta Boboyev – **Adabiyotshunoslikka kirish.**
6. Umumta’lim maktablari uchun **Adabiyot darsliklari (9–11-sinflar)**